



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI




**2024-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI
BO'YICHA QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY
IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK YO'NALISHIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Resublikada **faoliyat ko'rsatayotgan** korxona va tashkilotlar soni **2024-yil 1-oktabr** holatiga **466,4 ming**tani tashkil etib, shundan **35,7 ming**tasi (7,6%) qishloq, **o'rmon va baliqchilik xo'jaligi** faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlardir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK YO‘NALISHIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi **Qashqadaryo** (**13,1 foiz**), **Toshkent** (**10,9 foiz**) va **Buxoro** (**9,3 foiz**) viloyatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Yillar kesimida soni
(birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda
xizmat ko‘rsatish

32 454



2 963

Baliq ovlash va
akvakultura

O‘rmonchilik va
yog‘och tayorlash


237




QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK YO‘NALISHIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR

Resublikada **2024-yil yanvar-sentabr** oylarida **yangi tashkil etilgan** korxona va tashkilotlar soni **64,6 mingtani** tashkil etib, shundan **7 878** tasi (**12,2%**) qishloq, **o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlardir.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %




QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALAR



Joriy yilning **yanvar-sentabrida** qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **22,9 trln so'mni**, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi ulishi **6,7 foizni** tashkil etdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR HAJMI VA TARKIBI, MLRD SO'M/%




QISHLOQ XO'JALIGIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR VA KREDITLAR



Joriy yilning **yanvar-sentabr** oylarida qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi **14 trln so'mni**, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulishi **6,0 foizni** tashkil etdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR TARKIBI, %




QISHLOQ XO'JALIGIDA BANDLIK



Joriy yil **yanvar-sentabr oylarida** jami **1,9 million**dan ortiq (rejaga nisbatan **104,2%**) ish o'rinlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, agroklastarlarda **14,3 ming**, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida **284,8 ming**, takroriy ekinga yer ajratish hisobiga **80,4 ming**, tomorqada **370 ming**, pillachilikda **1 mln** hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida **23 ming** nafar fuqarolar band qilindi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining eng yuqori hajmi **Qashqadaryo** (**402,1 ming ta**), **Surxondaryo** (**238,2 ming ta**), **Andijon** (**234,7 ming ta**), **Farg'ona** (**185,5 ming ta**), **Xorazm** (**139,8 ming ta**) viloyatlarida qayd etildi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, ta




OZIQ-OVQAT MAHSULOTI ISHLAB CHIQUARISH



Joriy yil **yanvar-sentabr** oylarida **96,8 trln** so'm hajmda oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi **104,6 %** (jami sanoat mahsulotlari tarkibidagi ulushi – **15,2 %**) ni tashkil etdi

Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, o'sish sur'ati va ulushi dinamikasi

Yanavr-sentabr



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



2024- yil **yanvar-sentabr** oylarida **1 495,2 ming** tonna **meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan** bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **11,8 %** yoki **157,2 ming** tonnaga ko'paydi.

2024- yil **yanvar-sentabr** oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **1 045,5 mln** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **25,8 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari **Rossiya (44,7 %)**, **Qozog'iston (14,1 %)**, **Pokiston (14,1 %)** hamda **Afg'oniston (7,3 %)** davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum

96,0 mln
AQSH dollari

108,7 ming tonna

51,0 % ↑



Karam

43,0 mln
AQSH dollari

163,3 ming tonna

2,0 m. ↑



Piyoz

60,1 mln
AQSH dollari

308,8 ming tonna

13,6 % ↑



Gilos

70,3 mln
AQSH dollari

32,2 ming tonna

33,0 % ↑



Uzum quritilgan

34,7 mln
AQSH dollari

23,7 ming tonna

- 26,3 % ↓



O'rik

62,3 mln
AQSH dollari

64,8 ming tonna

52,9 % ↑



No'xat

3,6 mln
AQSH dollari

15,2 ming tonna

11,3 m. ↑



Olxo'ri quritilgan

21,3 mln
AQSH dollari

14,9 ming tonna

- 35,1 % ↓



Olxo'ri

25,9 mln
AQSH dollari

32,3 ming tonna

18,9 % ↑



SHaftoli

96,5 mln
AQSH dollari

103,0 ming tonna

43,6 % ↑



Yeryong'oq

10,8 mln
AQSH dollari

6,5 ming tonna

2,5 m. ↑



Sabzi

27,0 mln
AQSH dollari

112,0 ming tonna

89,7 % ↑




QISHLOQ, OʻRMON VA BALIQCHILIK XOʻJALIGINING
ASOSIY IQTISODIY KOʻRSATKICHLARI

Oʻzbekiston Respublikasida qishloq, oʻrmon va baliqchilik
xoʻjaligi tarmogʻining YAIM (YAHM) tarkibidagi ulushi, % da

Qoraqalpogʻiston Respublikasi	20,1
Andijon	31,3
Buxoro	35,7
Jizzax	39,7
Qashqadaryo	33,3
Navoiy	10,8
Namangan	29,7
Samarqand	33,1
Surxondaryo	41,1
Sirdaryo	32,5
Toshkent	18,1
Fargʻona	28,3
Xorazm	35,9


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Surxondaryo (**41,1 %**), shuningdek **Jizzax (39,7 %)** viloyatlariga toʻgʻri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududlarga Navoiy (**10,8 %**) va Toshkent (**18,1 %**) viloyatlarini keltirib oʻtish mumkin.



YAIM (YAHM) tarkibidagi ulushi

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi **19,4 %** ni tashkil qildi.

Maʼlumot uchun: 2023- yilda YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi **21,2 %** ni tashkil qilgan.



- Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
- Boshqalar

HUDUDLAR BO‘YICHA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI
MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HAJMI

	Hajmi, mlrd.so‘m	O‘shish sur‘ati, % da
O‘zbekiston Respublikasi	323 878,0	103,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10 305,5	103,4
viloyatlar:		
Andijon	31 888,1	102,7
Buxoro	28 908,1	101,7
Jizzax	20 222,0	101,2
Qashqadaryo	31 190,8	104,2
Navoiy	15 064,9	103,1
Namangan	23 804,9	103,4
Samarqand	41 824,9	103,7
Surxondaryo	26 875,0	103,8
Sirdaryo	10 722,0	100,1
Toshkent	31 081,6	103,2
Farg‘ona	30 373,9	104,0
Xorazm	21 616,3	104,1

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)- larining eng yuqori hajmi Samarqand (**41 824,9**mlrd. so‘m), Andijon (**31 888,1** mlrd. so‘m) va Qashqadaryo (**31 190,8** mlrd. so‘m) viloyatlarida qayd etilib, aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**10 305,5** mlrd. so‘m), Sirdaryo viloyati (**10 722** mlrd. so‘m) va Navoiy viloyatini (**15 064,9** mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida o‘shish sur‘atlari


Sezilarli darajadagi yuqori o‘shish sur‘atlari Qashqadaryo (**104,2** %), Xorazm (**104,1** %), Farg‘ona (**104,0** %), Surxondaryo (**103,8** %) viloyatlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari Sirdaryo (**100,1** %), Jizzax (**101,2** %), Buxoro (**101,7** %), Andijon (**102,7** %) va Toshkent (**103,2** %) viloyatlarida kuzatildi.



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **312 748,1** mlrd, so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **103,1** % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **149 641,3** mlrd. so'mni (101,2 %) chorvachilik mahsulotlari – **163 106,8** mlrd, so'mni (**104,8** %) tashkil qildi.



Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**40 612,7** mlrd. so'm), Andijon (**30 862,6** mlrd. so'm) va Qashqadaryo (**30 409,1** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (**9 706,2** mlrd. so'm), Sirdaryo viloyati (**10 050,9** mlrd. so'm) va Navoiy viloyati (**14 504,8** mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Qashqadaryo (**104,2** %), Xorazm (**104,0** %), Farg'ona (**103,9** %), Navoiy va Surxondaryo (**103,7** %), viloyatlarida qayd etildi. Sirdaryo (**99,7** %), Jizzax (**101,2** %) va Buxoro (**101,6** %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

Hududlar kesimida dehqonchilik
mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



O'zbekiston Respublikasi
2024- yil yanvar-sentabr




149 641,3 mlrd. so'm



O'sish sur'ati **101,2 %**

**Qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining umumiy
hajmdagi ulushi**



Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmini hududlar kesimida tahliliga ko'ra qayd etish kerakki, eng yuqori hajmi Samarqand (**21 617,1** mlrd so'm), Andijon (**18 533,3** mlrd so'm), Farg'ona (**17 467,8** mlrd so'm), Surxondaryo (**14 074,7** mlrd so'm), Buxoro (**13 341,5** mlrd so'm) va Toshkent (**12 729,8** mlrd so'm) viloyatlarida kuzatildi.

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Samarqand (**11,7 %**), Qashqadaryo (**11,2 %**) va Toshkent (**10,3 %**) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm


Samarqand	18 995,6
Qashqadaryo	18 302,7
Toshkent	16 765,8
Buxoro	15 126,6
Jizzax	12 693,0
Surxondaryo	12 331,7
Andijon	12 329,3
Xorazm	12 297,4
Farg'ona	12 257,3
Namangan	11 285,9
Navoiy	9 854,9
Qoraqalpog'iston Resp.	5 937,6
Sirdaryo	4 929,0

O'zbekiston Respublikasi

2024- yil yanvar-sentabr



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi




Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**108,2 %**), Jizzax (**106,0 %**), Namangan (**105,5 %**) viloyatlarida qayd etildi.

YALPI ICHKI MAHSULOT TARKIBIDA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGINING O'RNI


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 1 015,3 trln so'mni**, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish **106,6 foizni** tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi **80,6 mlrd AQSh dollari** ekvivalentiga teng bo'ldi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **187,9 trln so'mni** yoki **14,9 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulotdagi qo'shilgan qiymati ulushi esa **19,4 foiz** darajada bo'ldi.



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati, o'sish sur'ati, YAIMdagi ulushi



QISHLOQ O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMLARI DINAMIKASI


2024-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **323,9 trln so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **103,1 foizga** o‘shirildi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning AQSh dollaridagi ekvivalenti **25,7 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **31,2 trln so‘mlik** (**0,4 mlrd doll**) ko‘p mahsulotlar ishlab chiqarildi.


Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi jon boshiga **8,7 mln so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan (**8,0 mln so‘m**) **1,0 foizga** oshdi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga o‘sishi



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ HO'JALIGIDA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRARISH HAJMI

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda **2,9 trln so'm**, o'rmon xo'jaligida **6,2 trln so'm** va baliq xo'jaligida **2,0 trln so'm**, dehqonchilik mahsulotlari **149,6 trln so'm**, chorvachilik mahsulotlari **163,1 trln so'm** ishlab chiqarilgan. Tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori ulushi chorvachilikka to'g'ri keladi - **50,4 foiz**. Dehqonchilikda - **46,2 foiz**, o'rmon xo'jaligida - **1,9 foiz**, qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda - **0,9 foiz**, baliqchilik xo'jaligida - **0,6 foizni** tashkil etdi.




■ 2023-yil yanvar-sentabr mlrd so'm

■ 2024-yil yanvar-sentabr mlrd so'm

HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNI

2024-yil **yanvar-sentabr** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi mahsulotlarini ulushining o'sish sur'ati **Samarqand** (104,8 %), **Farg'ona** (102,2 %) va **Xorazm** (101,5 %) viloyatlarida qayd etildi. **Sirdaryo** (-7,7 foiz), **Namangan** (-3,7 foiz), **Toshkent** (-2,1 foiz) viloyatlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushida pasayish kuzatildi.

Hududlarning yalpi ulushi va o'sish sur'atlari, %



■ 2022-yil yanvar-sentabr, trln so'm

■ 2023-yil yanvar-sentabr, trln so'm

■ Ulushning o'sish sur'ati, %

DEHQONCHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH

DON

7 507 **107,7**
ming tn foiz




SABZAVOT

8 604 **105,8**
ming tn foiz




KARTOSHKA

2 794 **104,3**
ming tn foiz



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (yanvar-sentabr, ming tn)



DEHQONCHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH

POLIZ

1 714 **106,7**
ming tn foiz

MEVA


2 427 **106,5**
ming tn foiz

UZUM

1 356 **106,8**
ming tn foiz



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (yanvar-sentabr, ming tn)




CHORVACHILIK MAHSULOTLARI VA OVLANGAN BALIQ

2024-yilning **yanvar-sentabr** oylarida **2,1 mln tonna** go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **4,9 %**ga oshgan. Hududlar bo'yicha go'sht yetishtirish hajmi **Qashqadaryo viloyatida 241,7 ming tonna**, **Samarqand viloyatida 240,6 ming tonna**, **Toshkent viloyatida 234,1 ming tonna**, **Buxoro viloyatida 219,4 ing tonna**, **Xorazm viloyatida 97,2 ming tonnani** tashkil etdi.

GO'SHT		SUT		TUXUM		BALIQ	
2 142	104,9	8 961	104,5	6 332	104,6	90,1	101,0
ming tn	%	ming tn	%	ming tn	%	ming tn	%



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
(yanvar-sentabr, ming tin, mln dona)




CHORVA MOLLARI VA PARRANDALAR BOSH SONI

	2023-yil 1-oktabr	2024- yil 1-oktabr	o'sish sur'ati, %
 Yirik shoxli qoramollar <i>mln bosh</i>	13,8	14,1	2,0%
 Sigirlar <i>mln bosh</i>	4,9	5,0	1,8%
 Qo'y va echkilar <i>mln bosh</i>	23,8	24,4	2,4%
 Parrandalar <i>mln bosh</i>	97,1	101,9	4,9%

2024-yilning 1-oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni **14 126,9 ming boshga** yetdi, (2023-yilning mos davriga nisbatan **2,0 %** ga ko'p), sigirlar **5 031 ming bosh** (**1,8 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **24 412,6 ming bosh** (**2,4 %** ga ko'p), parrandalar **101 901,8 ming boshga** (**4,9 %** ga ko'p) yetdi. Eng ko'p yirik shoxli qoramollar soni Qashqadaryoda (**1777,7 ming bosh**), Samarqandda (**1721,5 ming bosh**), Buxoroda (**1370,8 ming bosh**) qayd etilgan. Chorva hayvonlari va parrandalarning **59,2 foizi** dehqon xo'jaliklari toifasi, **15,4 foizi** fermer xo'jaliklari, **24,4 foizi** qishloq xo'jaligi korxonalari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Chorva xayvonlari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %



■ Fermer xo'jaliklari ■ Dehqon xo'jaliklari ■ Qishloq xo'jaligi korxonalari